

## ???? Kasbim -mening hayotim mazmuni!!!

15.06.2021-yil kuni Rishton tumanining so'lim istirohat bog'i o'quvchi yoshlar tomonidan yaratilgan chin ma'nodagi san'at asarlari bilan to'la.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi mushohadalarini yodga olmay ilojimiz yo'q "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yanamiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'llim, maktab va oliy ta'llimni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. SHu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar."

Darhaqiqat bugungi kunda o'quvchi-yoshlarga qaratilayotgan e'tibor ertaga, albatta o'z mevasini beradi. Ta'llim muassasalarining 7-11-sinf o'quvchilarini kasb hunarga yo'naltirish, ustoz-shogird an'anasi va inklyuziv ta'llim olayotgan o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatish bugungi ilm-fan taraqqiy etgan zamonamizning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifa yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Rishton tumanida o'tkazilgan bugungi seminar-treningga O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori L.Gaynudinova tashrif buyurdi.

L.Gaynudinova o'z so'zida yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, ulardan samarali foydalanish kerakligi, boi'sh vaqtini inson to'g'r taqsimlay olishni bilishi kerakligi hamda kasb-hunar egallab hayotda o'z o'rniiga ega yetuk mutaxassis bo'la olishi va biz baxtli, farovon hayotda yashayotganligimiz to'g'risida alohida to'xtalib o'tdi. Istirohat bog'idagi o'quvchi yoshlar tomonidan yaratilgan ko'rgazmalar tahsinga sazovor. Qo'l mehnati bilan tikilgan kashta-yu usta-hunarmand darajasiga yetay deb qolgan o'quvchilar tomonidan yasalgan buyumlar kishini hayratga soladi. Ta'llim muassasalarining amaliyotchi-psixologlari tomonidan o'tkazilgan o'quv-treninglar barchaga ma'qul bo'ldi. Ushbu seminar-trening kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab olishda dasturulamal vazifasini bajardi desak mubolag'a bo'lmaydi.

2021-06-15 17:24:43